



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŃ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

BADIY ASARLARDAGI QAHRAMONLARNING MIMIKASI

Gulmira Ganiyeva Maksetbayevna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy va gumanitar fanlarni masofadan o'qitish kafedrası stajor-o'qituvchisi

Davlatbayeva Gulidaxon Sheripbay qizi,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Sirtqi bo'lim fakulteti Qoraqalpoq tili va adabiyoti mutaxassisligi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Maqolada badiiy asar qahramonlarning mimikasi, asarni o'qish davomida inson mimikasiga tasir qilishi. Inson yuzida nimalar sodir bo'lishini misollar yordamida aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy asar, badiiy asar tili, obraz, mimika, inson mimikasi, adabiyot va san'at.*

Badiiy asar – adabiyot va san'atning voqea bo'lish va yashash shakli, yaxlitlik kasb etgan obrazlar tizimi, badiiy muloqot vositasi. Keng ma'noda badiiy asar san'atning u yoki bu turi (musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik, kino, teatr)ga mansub bo'lgan, insonning go'zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati maxsuli sifatida yaralgan yangi mavjudlikni anglatadi, ya'ni ma'noda alohida olingan musiqa asari ham, haykal yoki rang-tasvir ham, film yoki spektakl ham badiiy asar sanaladi. Termin faol qo'llanuvchi tor ma'nosida badiiy adabiyotga mansub bo'lgan «Adabiy badiiy asar» ni bildiradi. Shu o'rinda adabiyotga mansub etiluvchi asarlarning hammasi ham badiiy asar bo'lavermasligini, «Adabiy asar» bilan «Adabiy-badiiy asar» tushunchalari farqlanishini ta'kidlash lozim. Ya'ni «Adabiy asar» tushunchasining qamrov doirasi keng bo'lib, «Adabiy badiiy asar» uning tarkibiga kiradi. Hikoya, qissa, roman, memuar, sayohatnoma, esse janrlarida bitilgan asarlarning hammasi «Adabiy asar», biroq sanalganlar ichida hikoya, qissa va romanga nisbatangina «badiiy asar» deyish mumkin. [1-1]

Adabiyotga mansub til vositalaridan tarkib topuvchi matn, u ham mohiyat e'tibori bilan nutq hodisasidir. Nutq esa, ma'lumki, jarayon bo'lib, bu jarayonning amalga oshishi uchun adresant va adresatning bo'lishi talab etiladi. Ya'ni badiiy asar muloqot asosida dunyoga keladi. Ayni shu muloqot - ijod jarayoni asar matnida muhrlanadi. Asarni o'qish jarayonida muloqot qaytadan jonladi. Endi yozuvchi «Tasavvurdagi suhbatdosh» mavqeiga o'tsa, o'quvchi real suhbatdoshga aylanadi.

Yirik rus filolog olimi G.Vinokur badiiy asar tili nima degan savolga jo'ngina qilib: «Badiiy til deganda badiiy asarlar yozishda ishlatiladigan til tushiniladi» – deb



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya


yoʻzgan edi. Badiiy asar tili haqida gap borganda uning yana bir jihati – differentsiyalanganligiga yaʼni, farqlanganligiga alohida toʻxtalish zarur. Albatta, biz «badiiy asar tili» deganimizda, aslida gap badiiy nutq haqida borayotganligi maʼlum boʻladi. Chunki til unsurlari maʼlum kontekstni hosil qilgach, nutq hodisasiga aylanadi. Badiiy nutqning farqlanganligi shuki, unda muallif va qahramonlar nutqi ajratiladi.

Adabiy til deganda umumxalq tilining grammatik, imloviy va orfoepik jihatlardan meʼyorlashtirilgan shaklini tushunamiz. Badiiy til umumxalq tili bazasida shakllanadi va qisman adabiy til meʼyorlariga yaqinlashadi. Badiiy til adabiy til meʼyorlaridan oʻrni bilan cheklanadi. Masalan, shevaga xos unsurlarning ishlatilishi. Badiiy til oʻzida milliy adabiyotimizda uzoq davrlardan beri shakllanib kelgan anʼanalarning davomchisi sanaladi va shu bois ham unda uning oʻzigagina xos boʻlgan unsurlar, anʼanaviy sifatlashlar, ramzlar va majozlar, oʻxshatishlar majmuasi mavjuddir. [2-3]

Obraz, mimika va inson mimikasi.«Obraz» atamasi «raz» («chiziq») soʻzidan olingan boʻlib, «raz» soʻzidan «razit» yaʼni chizmoq, yoʻnmoq, oʻymoq va undan «obrazit» chizib, yoʻnib, oʻyib shakl yasamoq soʻzlari kelib chiqqan. «Obrazit»dan «obraz» – «umuman olgan tasvir» degan soʻzlar vujudga kelgan. Obraz nazariyasi, dastavval, Aristotel estetik qarashlarida uchrasa ham, unga birinchi bor nemis faylasufi Gegel ilmiy taʼrif bergan edi: «Sanʼat obraz orqali fikrlashdir».

Obraz, badiiy obraz - voqelikni faqat sanʼatga xos usulda oʻzlashtiradigan va oʻzgartiradigan xarakterlovchi estetik kategoriya. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea ham obraz deb yuritiladi. Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda, badiiy umumlashma ...;xususiyatiga va hissiy taʼsir kuchiga ega boʻlgan surati badiiy obraz deyiladi. Obraz (timsol) tushunchasining keng va tor tushunchalari mavjud. Keng maʼnodagi obraz tushunchasi ijodkorning fikr-tuygʻulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi. Tor maʼnoda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi.

Mimika yunonchadan olingan boʻlib - «taqlid» yaʼni yuz mushaklarining ifodali harakati. Insonning maʼyuslik, xursandlik, gʻazab,xafalik kabi hissiyotlarini ifodalaydi. Oddiy kishilarda tabiiy tarzda roʻy bersa, teatr sanʼatida esa aktyorlarning doimiy mashqlari asosida yuzga keladigan hodisadir. Yuzga beriladigan parдоз mimikani ifodaviyligini oshiradi. Mimika aktyorning nutqi bilan hamohang boʻlib, obraz mohiyatini, qahramonlarning oʻzaro munosabatlarini ochishga xizmat qiladi. Puxta oʻylangan va texnik jihatdan mukammal mimika sahna soʻzi ahamiyatini



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŇ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

oshiradi va uning tub ma'nosini chuqur anglashga yordam beradi. Ayniqsa, so'zsiz o'rinlarda, sukunatlarni to'ldirishda muhim ahamiyatga ega. Pantonimaga ixtisoslashgan fransuz aktyori Marsel Marso kabi aktyorlar faqat tana harakatlari va mimikaga tayanishgan.[3-1]

Inson faqat yuz ifodasi bilan yetkazishi mumkin bo'lgan narsalar haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Tabassum - ma'qullash yoki baxtni anglatadi. Biror kishi qoshini burishtirganda, bu norozilik yoki baxtsizlik belgisi bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda, yuz ifodalari, agar ular so'zlarga mos kelmasa ham, ma'lum bir vaziyatga nisbatan haqiqiy his-tuyg'ularni ochib beradi. **O'zingizni yaxshi his qilyapman deb aytsangiz ham, yuzingiz aksini ko'rsatadi.** Yuz bilan aks ettirilgan hissiyotlarga ba'zi misollar: **baxt, qayg'u, g'azab, ajablanish, nafrat, qo'rquv, chalkashlik, hayajon, istak va h.k.**

Odamning yuzidagi ifoda, hatto uning gaplariga ishonishimiz yoki ishonmasligimizni aniqlashga yordam beradi. Bir tadqiqot shuni ko'rsatdiki, eng ishonchli yuz ifodasi qoshlarning yengil ko'tarilishini va yengil tabassumni o'z ichiga oladi. **Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bu ibora do'stlik va ishonchni anglatadi. Tadqiqotchi Pol Ekman o'ziga xos his-tuyg'ular bilan bog'liq turli xil yuz ifodalarini, shu jumladan quvonch, g'azab, qo'rquv, ajablanish va qayg'ularni topdi.** Uning tadqiqotlari hattoki odamlarning aql-idroki to'g'risida ularning yuzlari va ifodalariga qarab xulosa chiqarishni ko'rsatdi.[4-2]

Demak, inson mimikasida sodir bo'ladigan barcha hodisalar: kulgu, qayg'u, yig'i, g'azab, nafrat, mayuslik kabi his-tuyg'ular inson qalbining tub-tubida yashiringan kechinmalarini yuz ifodasida namoyish etadi. Buning umuman yomon tarafi yo'q deb hisoblayman. Chunki, yaqinlarimizga ba'zida aytolmagan hislarimizni, yuz ifodalarimiz orqali bildirib, ulardan huddi yordam yoki mehirlanish kutgandek bo'lamiz. Bu bizga biroz bo'lsa ham tasalli beradi. Inson zoti yaralgandan ekan, bir-biriga yordam berib, mehirlanish ulashib kelmoqda. Yuqorida aytib o'tilganidek, inson yuzidagi ifodalar ikki yo'l bilan yuzaga chiqadi. Birinchisi, tabiiy yo'l bilan. Bunda quvuchli xabarlar, kulguli latifa, gaplar orqali, qandaydir bir ayanchli hodisalar, kimningdir gapiga jahl qilish. Bularning barchasi uyishtirilmagan holda, yuzimizda akstasir (refleks) sodir bo'ladi. Ikkinchisi, shakillantirilgan (uyishtirilgan) bo'lib, uni ko'pincha aktyorlar qo'llashadi. Sahna asarlari, kinofilmlarni tomosha qilganimizda, aktyorlarning mahoratiga tan qolamiz. Rol ijro etayotgan aktyorlarning yuz ifodalarini kuzatar ekanmiz, filmdagi voqealar o'ylab topilgan yoki senariy asosida bo'lsa ham, beixtiyor ularning qayg'usiga qayg'uramiz, quvonchiga sherik,



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŃ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

g'azabiga g'azablanamiz. Buning uchun aktyorlar qanchadir vaqt tayyorlanishadi, mashq qilishadi. Asardagi qahramonlar o'rniga o'zlarini qo'yib, asar qahramonga aylanishadi, uning hayoti, ichki kechinmalari bilan bir muddat yashaydi. Natijada mukkamal bir kinofim yoki sahna asari yaratiladi.

Taniqli qoraqalpoq yozuvchisi K.Raxmanovning «Injiqning muhabbati» komediyasini o'qir ekanmiz, undagi badiiy qahramonlarning his-tuyg'ularini his etamiz. Yoshi o'ttizdan oshgan bo'lsa ham uylanishdan qo'rqadigan G'arriboy, o'g'lini uylantira olmay yurgan Xudayor, Ziyoda, Oysho'lpon, Oyjamol, Irisgul kabi asar qahramonlarining kulguli harakatlari, gaplarini yozuvchi mohirlik bilan tasvirlab bergan.

Irisgul: — Non ham yopa olasizmi?

G'arriboy: — Qishloqdagi ayollardan yaxshi yopaman. Qishloqda biron bir maraka chiqsa yopib ber deb yalinishadilar.

Irisgul: — Kiyimlarni ham yuvasizmi?


G'arriboy: — Yuvganda qandoq! Kirning barchasini oydek qilib qo'yaman. Uy ichkarisini ham chinnidek qilaman. Mendan qoladigan ish yo'q. [5-18]

Asardagi bu qatorlarni o'qib beixtiyor yuzimizga tabassum yuguradi. Bu asar qahramonining inson mimikasiga tasiridir. U tabiiy ravishda paydo bo'ladi.

Ardoqli o'zbek yozuvchisi G'ofur G'ulomning «Sen yetim emassan» asarini o'qir ekanmiz, ko'zlarimizga yosh keladi. Taqdirning achchiq haqiqanini o'ylab, qalbimiz biroz o'ksinadi. Bu og'riqlar, achinishlardan yuzimizda nimalardir sodir bo'ladi, his-hayajonga berilamiz. Sodir bo'layotgan ajoyib tuyg'ular jamlanmasi – inson mimikasidir.

Inson tuyg'ularsiz yashay olmaydi. Agarda tuyg'ular bo'lmasa, inson qalbi tosh, yuzi esa mustahkam quyma beton kabi bo'lib qolar edi. Nafaqat kinofilm, sahna asarlarini tomosha qilib, shuningdek badiiy asarlarni o'qigan holda inson mimikasida juda ko'plab hodisalar sodir bo'ladi. Axir kinofilmlar, sahna asarlari ham badiiy asarlardan yaraladi.

Badiiy asarni o'qish davomida badiiy qahramonlarni kinofilm yoki sahna asarlaridek ko'zimiz bilan ko'rmasak da, ularning qayg'ularini, quvonchlarini, g'azablarini his etamiz, huddi o'z boshimizdan o'tirgandek bo'lamiz. Yuzimizda barchasi namoyon bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, badiiy asar qahramonlarining mimikasi inson mimikasiga juda kuchli tasir qiladi. Vaholangki, adabiyot kuchli quroldir.



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Adabiyotlar:

1. Adabiyotshunoslik lug‘ati D.Quronov, Z.Mamajonov, M. Sheraliyeva, Toshkent «Akademnashr», 2013. 1b
2. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. -T.:O'qituvchi, 1995. 3b
3. Muhsin Qodirov. Birinchi jild. Toshkent, 2000. 1b
4. Mimika: sizning yuzingizdagi his-tuyg‘ularingiz. sana 15/09/2020. 2b
5. K.Raxmanov «Injiqtin muhabbatı». 1993. 18b

